

**O'ZBEKISTONDA YETISHTIRILAYOTGAN MAHALLIY YOG'OCH
MATERIALLARINING XUSUSIYATLARI.**

Dots, Davlyatov Shoxrux Muratovich, Assistent, Solijonov Foziljon Sodiqjon o'g'li,
Farg'onha politexnika instituti, (O'zbekiston)
f.s.solijonov@ferpi.uz, davlatshoh@inbox.ru.

Annotatsiya: O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi "Respublikada tez o'suvchi va sanoatbop paulovniya daraxti plantatsiyalarini barpo qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 27 avgustdag'i 520-sonli qaroriga muvofiq Hunarmandchilik va ishlab qurilish ishlab chiqarishi rivojlantirish maqsadida qurilish materiali hisoblangan yog'och materiallari xususiyatlari va mustaxkamlik xossalari tadtqiq etish.

Kalit so'zlar: Mustaxkamlik, olovbardoshlik, suv shimuvchanlik, namlik, zichlik, paulovniya, oq terak, Kaliforniya teragi, tog'terak, korroziya, qarag'ay, eman.

Respublikada hunarmandchilik, qurilish materiallari, yog'och va yog'och qirindili xomashyo ishlab chiqarishni rivojlantirish, mebel sanoatida yog'och mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish, import hajmini keskin kamaytirish, shuningdek, aholini muqobil energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi "Respublikada tez o'suvchi va sanoatbop paulovniya daraxti plantatsiyalarini barpo qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 27 avgustdag'i 520-sonli qaror qabul qildi. Bunga ko'ra yog'och va yog'och qirindili xomashyo ishlab chiqarishni yetarli xomashyo bilan ta'minlash, mebel va pellet ishlab chiqarish sanoati samaradorligini oshirish maqsadida paulovniya plantatsiyalarini barpo etish uchun har bir loyihaga 100 gektardan kam bo'limgan yer maydoni ajratiladigan, hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi soha olimlarini jalg qilgan holda, paulovniya daraxtining biologik xususiyatidan hamda hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, paulovniya plantatsiyalarini tashkil etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berishi nazarda tutilgan. Qarorga muvofiq, suv tanqis, yer osti suvlari 30 metrdan pastda joylashgan foydalanimayotgan zaxira maydonlarda hamda o'rmon fondining suv tanqis yoki tuprog'i sho'r bo'lgan yerlarida sinov tariqasida 2020-2024 yillarda paulovniya plantatsiyalarini tashkil qilinadi. Qarorga ko'ra, belgilangan yillarda respublika bo'yicha paulovniya plantatsiyalarini tashkil etish orqali 4000 hektar zaxira yerlarda 2 mln 990 ming dona hamda 1000 hektar o'rmon fondi yerlarida 747 ming 500 dona paulovniya daraxti ko'chatlarini yetishtirish nazarda tutilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari tomonidan talabgorlarga paulovniya yetishtirish uchun yer uchastkalari ijara huquqi asosida ajratiladi. Paulovniya plantatsiyalarini barpo etish uchun har bir loyihaga 100 gektardan kam bo'limgan yer maydoni ajratiladi. Shuningdek, 2021 yildan boshlab har yili o'tkaziladigan innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida pavlovniya daraxti va undan olingan mahsulotlar namunalari bilan ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar va fermerlar keng miqyosda tanishtirib boriladi. [1]

O'zbekistonda qurilish sohasida yog'och materiallari bo'lgan extiyoj juda yuqori va oshib bormoqda. Mazkur qaror va ko'rileyotgan chora tadbirlarni shuningdek, O'zbekistonda yog'och materiallari bo'lgan extiyojlarni inobatga olgan holda nafaqat paulovniya balki, boshqa mahalliy yog'och materiallari ham nazariy va eksperimental tadqiq etish orqali ushbu materiallarni qurilish sohasiga keng miqyosda tadbiqu etish muhim o'rinn egallaydi. [3]

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda mahalliy yakka tartibdagi qurilishlarda Kaliforniya teragi, oq terak, tog' teragi kabi mahalliy yog'och materiallari ham keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu yog'och materiallarni mustahkamlik, olovbardoshlik xususiyatlarini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Paulovniya – dunyoda eng tez o'suvchi manzarali, yog'ochi sifatli, qurilishda ishlatiladigan daraxt hisoblanadi. Paulovniya yog'ochi tez quriydi va vazni yengil bo'ladi. Qiylash uchun – eman daraxti yog'ochining bir kub metri o'rtacha 850 kilogramm,

qarag‘ayniki 485 kilogrammni tashkil etsa, paulovniyada bu ko‘rsatkich ko‘pi bilan 285 kilogrammga yetishi mumkin. Mustaxkamligi va uzoq yillar foydalanish mumkinligi tufayli paulovniya yog‘ochidan shift, eshiklar, javon, stol va stullar tayyorlashda keng qo‘llaniladi. [6]



1-rasm. Paulovniya yog‘ochidan olingan taxta.



2-rasm. Paulovniya daraxti.

Yog‘och tarkibida suv miqdori va suv shimuvchanligi kamligi uchun yog‘ochning korroziyaga chidamliligi yuqori hisoblanadi. Shuningdek, yonish xavfining kamligi muhim o‘rin egallaydi. Bu esa, O‘zbekistonda quruq issiq iqlim sharoitiga va olovbardoshlik talablariga mos keladi. Xususan, xalqaro amaliyotda paulovniya yog‘ochi avtomobilsozlik, samolyotsozlik va kemasozlik singari yirik sanoat tarmoqlarida istiqbolli xom-ashyoga aylantirilmoqda.

O‘zbekistonda shuningdek, tog‘ teragi, Kaliforniya teragi, oq terak kabi yog‘ochlar ham yetishtirishmoqda. Ushbu materiallardan hozirgi kunda to‘sin, stropila, ustun kabi konstruksiyalarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu daraxt turlari ham tez o‘suvchi, tez quriydigan va yengil hisoblanadi. Lekin mustaxkamligi, suv shimuvchanligi, olovbardoshligi boshqa yog‘och materiallariga nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega. Solishtirish uchun qarag‘ay, archa, Yevropa va Yaponiya yilog‘ochining siqilishdagi hisobiy qarshiligi o‘rtacha $R_c = 140 \frac{kg}{sm^2}$, emanniki $R_c = 182 \frac{kg}{sm^2}$, aksniki $R_c = 210 \frac{kg}{sm^2}$, tog‘ teraginiki esa $R_c = 112 \frac{kg}{sm^2}$ ga teng. Yuqoridagilarga asoslangan holda, mahalliy yog‘och materiallarini tadqiq etish zarur hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida qurilish ishlab chiqarishiga hamda qurilish sanoatiga tdbiq etish orqali qurilish sohasida sezilarli darajada iqtisodiy samardorlikka erishish mumkin.

3-rasm. Terak.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ganiev, A. G. (2021). The Development Of The Doctrine Of Light.“Wave Theory Of Light” Mind Map. In ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 10-12).
2. Рахманбердиев, Г. Р., & Муродов, М. М. (2011). Разработка технологии получения целлюлозы из растений топинамбура. Итисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, (2), 1-11.
3. MURODOVICH, M. M., QULTURAEVICH, U. M., & MAHAMEDJANOVA, D. (2018). Development of Technology for Production of Cellulose From Plants of Tissue and Receiving Na-Carboxymethylcellulose On its Basis. JournalNX, 6(12), 407-411.
4. Primqulov, M. T., Rahmonbtrdiev, G., Murodov, M. M., & Mirataev, A. A. (2014). Tarkibida sellyuloza saqllovchi xom ashyoni qayta ishlash texnologiyasi. Ozbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyati. Toshkent, 28-29.
5. Murodov, M. M., Rahmanberdiev, G. R., Khalikov, M. M., Egamberdiev, E. A., Negmatova, K. C., Saidov, M. M., & Mahmudova, N. (2012, July). Endurance of high molecular weight carboxymethyl cellulose in corrosive environments. In AIP Conference Proceedings (Vol. 1459, No. 1, pp. 309-311). American Institute of Physics.
6. Murodov, M. M., Xudoyarov, O. F., & Urozov, M. Q. (2018). Technology of making carboxymethylcellulose by using local raw materials. Advanced Engineering Forum Vols. 8-9 (2018) pp 411-412/©. Trans Tech Publications, Switzerland. doi, 10, 8-9.